



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI ANDIJON VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

Andijon viloyatida
kichik tadbirkorlik

2024-yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


2025-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **20,0** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,4** mingtaga kamaygan yoki **18,1** % ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **8,3** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024-yilning yanvar-dekabr **4,1** ming-ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,5** % ga pasaygan.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2025-yillar 1-yanvar holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2025-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2024-y.		2025-y.
24 381	Andijon viloyati	19 967
6 635	Andijon sh.	5 492
2 114	Asaka	1 666
1 989	Andijon	1 672
1 697	Shahrixon	1 349
1 311	Baliqchi	1 207
1 238	Oltinko'l	1 1042
1 180	Izobskan	938
1 197	Marhamat	911
1 053	Jalaquduq	869
1 099	Qo'rg'ontepa	988
1 232	Xo'jaobod	850
1 032	Paxtaobod	759
796	Bo'ston	672
721	Buloqboshi	585
611	Ulug'nor	631
438	Xonobod sh.	336

2025-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **19 2697** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **4 122** tani tashkil etdi.

2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahrida **5 492** tani yoki jamiga nisbatan **27,5 %** ni tashkil etdi.

1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Ulug‘nor	23,8
Bo‘ston	12,6
Xo‘jaobod	11,7
Andijon sh.	11,3
Jalaquduq	8,7
Baliqchi	8,4
Qo‘rg‘ontepa	8,4
Andijon	8,2
Marhamat	7,9
Xonobod sh	7,5
Paxtaobod	7,3
Oltinko‘l	6,9
Asaka	6,6
Buloqboshi	5,9
Izboskan	5,6
Shahrixon	5,4

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1-yanvar holatiga, birlikda



2025-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **8,3** birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan **1,2** birlikka pasaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko‘rsatkich Ulug‘nor tumanida **23,8** birlik, Bo‘ston tumanida **12,6** birlik, Xo‘jaobod tumanida **11,7** birlik, Andijon shahrida **11,3** birlik va Jalaquduq tumanida **8,7** birlikka yetdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Ulug'nor tumani
– 23,8 birlik.

O'rta ko'rsatkich

Mathamat tumani
– 7,9 birlik.

Eng past ko'rsatkich

Shahrixon tumanida
– 5,4 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Ulug'nor tumanida 23,8 birlik, Bo'ston tumanida 12,6 birlik, Xo'jaobod tumanida 11,7 birlik, Andijon shaxrida 11,3 birlik, Jalaquduq tumanida 8,7 birlik, Baliqchi tumanida 8,4 birlik, Qo'rg'ontepa tumanida 8,4 birlik, Andijon tumanida 8,2 birlik, Marhamat tumanida 7,9 birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2025-yil 1-yanvar holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarini ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Ulug'nor tumanida

23,8

Xo'jaobod tumani

11,7

Jalaquduq tumani

8,7

Bo'ston tumanida

12,6

Andijon shahar

11,3

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2023-y.

2024-y.

966	Andijon sh.	871
419	Andijon	355
326	Asaka	269
250	Shahrixon	241
228	Qo'rg'ontapa	299
224	Oltinko'l	219
226	Izboskan	218
241	Baliqchi	267
243	Marhamat	179
192	Xo'jaobod	201
133	Buloqboshi	177
201	Bo'ston	209
130	Ulug'nor	210
174	Jalaquduq	169
188	Paxtaobod	162
44	Xonobod sh.	76

2024-yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da



2024-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Andijon shahri (21,1 %), Andijon tumani (8,6 %), Qo'rg'ontepa tumani (7,3 %), Baliqchi tumani (6,5 %), Asaka tuman (6,5 %), Oltinko'l tumani (5,3 %) hamda Bo'ston tumani (5,61%) hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2023-2024-yillarning yanvar-dekabr ida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy
xizmatlar ko'rsatish



Boshqa xizmatlar

2023-y. 2024-y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024-yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida (1 341 ta), sanoatda (789 ta) hamda Boshqa xizmatlar sohasida (302 ta) yangidan tashkil etilgan.

Viloyatimizning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahrida (689 ta), Andijon tumanida (276 ta) hamda Qo'rg'ontepa tumanida (256 ta) yangidan tashkil etilgan.


2023-y. 2024-y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024-yillarning yanvar-dekabr i davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024-yillarning yanvar-dekabr oylari davomida jami **28 509** ta kichik korxona va mikrofirma yangitdan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **10 808** (yoki **37,9 %**) ta, sanoat sohasida – **7 290** (yoki **25,6 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **3 430** (yoki **12,0 %**) ta, xizmat sohasida – **5 340** (yoki **18,7 %**) ta va qurilish sohasida – **1 640** (yoki **5,8 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Investitsiya



Qurilish



Chakana savdo




Xizmatlar



Yuk tashish



Yuk aylanmasi




Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import


■ 2023-y. ■ 2024-y.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-dekabr oylarida), % da

2024-yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **69,5** % ni tashkil qilib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **0,9** % ga ko'paygan.




2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi tashish **97,2** % ni, qishloq xo'jaligi **96,9** % ni, yo'lovchi aylanmasi **95,4** % ni, qurilish **92,8** % ni, chakana savdo **92,4** % ni, yuk aylanmasida **75,3** % ni tashkil etdi.

Tarmoqlarning YAHMdagi ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Andijon sh	3 635,9
Xo'jaobod	2 765,3
Baliqchi	2 723,1
Qo'rg'ontepa	2 571,1
Shahrixon	1 805,8
Jalolquduq	1 805,8
Andijon	1 456,0
Izboskan	1 330,8
Asaka	869,9
Xonobod sh	871,6
Buloqboshi	750,1
Oltinko'l	716,3
Ulig'nor	710,1
Marhamat	550,0
Bo'ston	472,1
Paxtaobod	417,8

2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **23 085,4** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (**3 635,9** mlrd. so'm), Xo'jaobod (**2 765,3** mlrd. so'm), Baliqchi (**2 723,1** mlrd. so'm), Qo'rg'ontepa (**2 571,1** mlrd. so'm), Shahroxon (**1 805,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Paxtaobod tumanida (**417,8** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-dekabr ida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so'm

2024-yil yanvar-dekabr ida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 25,4 % ni tashkil etdi.




2024-yilning yanvar-dekabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Izboskan (100,0 %), Ulug'nor (92,2 %), Jalalquduq (74,7 %), Andijon (81,5 %), Shahrixon (91,5 %), Baliqchi (81,9 %), Xo'jaobod (74,6 %), Buloqboshi (69,3 %), Bo'ston (70,1%) hamda Qo'rg'ontepa (66,1 %) tumanlari tashkil etdi.

Izboskan	100,0
Ulug'nor	92,2
Jalalquduq	74,7
Andijon	81,5
Shahrixon	91,5
Baliqchi	81,9
Xo'jaobod	74,6
Buloqboshi	69,3
Bo'ston	70,1
Marxamat	51,8
Oltinko'l	40,0
Qo'rg'ontepa	66,1
Paxtaobod	37,6
Andijon	27,7
Xonobod	26,3
Asaka	1,9

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Bo'ston	351,2	99,4
Xonobod	167,4	99,1
Izboskan	382,1	98,6
Shahrixon	542,3	98,5
Paxtaobod	364,1	98,4
Baliqchi	310,5	98,3
Marhamat	231,3	97,9
Qo'rg'ontepa	253	97,1
Oltinko'l	395,5	96,3
Asaka	372,9	96,2
Xo'jaobod	313,7	94,3
Buloqboshi	227,2	92,2
Andijon sh	3567,8	90,1
Ulug'nor	83,7	82,4
Jalaquduq	191,9	80,5
Andijon	455,8	79,6

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2024-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **11 279,4** mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **92,8** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **111,6** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri **3 567,8** mlrd so'm), Shahrixon (**542,3** mlrd so'm), Andijon (**455,8** mlrd so'm), Oltinko'l (**395,5** mlrd so'm), Izboskan (**382,1** mlrd so'm), Asaka (**372,9** mlrd so'm) hamda Paxtaobod (**354,1** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024-yillarning yanvar-dekabr ida kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **20 011,1** mlrd. so'mni yoki jami investitsiya hajmining **71,1 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan **140,6 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Asaka tumani (**3 510,2** mlrd. so'm), Andijon tuman (**3 176,8** mlrd. so'm), Buloqboshi tuman (**2 634,8** mlrd. so'm), Baliqchi tumanida (**1 388,5** mlrd. so'm), Andijon shaxri (**1 350,2** mlrd. so'm), Oltinko'l tuman (**983,8** mlrd. so'm) hamda Paxtaobod tumanida (**878,8** mlrd. so'm) qayd etildi.

2019-2024-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y. 2024-y.

■ hajmi, mlrd so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **45 070,4** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **96,2**, % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **103,8** % ni tashkil qildi.

2019-2024- yillarning yanvar-dekabr ida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Jalalquduq (**4 298,5** mlrd. so'm), Shahrixon (**4 160,2** mlrd. so'm), Paxtaobod (**4 067,9** mlrd. so'm), Marhamat (**4 041,0** mlrd. so'm), Asaka (**4 309,3** mlrd. so'm) hamda Baliqchi (**3 373,5** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.


2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Xonobod.	235,4	99,9
Baliqchi	3 373,5	99,6
Andijon	2 447,3	99,3
Oltinko'l	2 561,2	99,1
Bo'ston	341,90	98,8
Buloqboshi	2 465,0	98,8
Jalaquduq	298,50	98,8
Marhamat	4 041,0	98,6
Shahrixon	4 160,2	98,1
Paxtaobod	4 067,9	97,9
Izboskan	2 367,8	95,6
Asaka	4 309,3	94,9
Ulug'nor	2 159,7	94
Qo'rg'ontepa	3 051,6	92,8
Xo'jaobod	1 905,6	88,3
Andijon sh.	1 284,2	85,8

hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da

2019-2024-yillarning yanvar-dekabr ida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **25 419,6** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,4 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **107,7 %** ni tashkil qildi.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Qo'rg'ontepa	1 688,2	99,4
Shahrixon	3 578,6	99
Ulug'nor	333,6	99
Marhamat	1 084,8	98,6
Buloqboshi	799,1	98,6
Paxtaobod	1 101,8	97
Oltinko'l	1 092,3	96,9
Xo'jaobod	915,2	96,1
Jalaquduq	786,1	96,1
Asaka	2 229,8	95,4
Baliqchi	1 694,8	95,4
Xonobod	268,2	93,8
Bo'ston	345,2	93,7
Izboskan	882,1	93,1
Andijon	1 514,0	92,1
Andijon sh	6 062,9	83,9

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (**6 062,9** mlrd. so'm), Shahrixon (**3 578,6** mlrd. so'm), Asaka (**2 229,8** mlrd. so'm), Baliqchi (**1 694,8** mlrd. so'm), Andijon (**1 514,0** mlrd. so'm), Oltinko'l (**1 092,3** mlrd. so'm) va Xo'jaobod (**915,2** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2019 va 2024-yillarning yanvar-dekabr ida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm




hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda

Andijon sh.	6 711,9
Baliqchi	1 286,5
Asaka	1 126,8
Andijon	995,8
Shahrixon	938,5
Qo'rg'ontepa	906,4
Marhamat	845,5
Xo'jaobod	789,6
Izboskan	770,1
Jalquduq	738,8
Oltinko'l	727,1
Paxtaobod	721,5
Buloqboshi	527,3
Xonobod sh	337,8
Bo'ston	229,8
Ulug'nor	222,1

2024-yil yanvar-dekabr da oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **31 591,9** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **75,6 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **113,7 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Andijon shahri (**6 711,9** mlrd. so'm), Baliqchi (**1 286,5** mlrd. so'm), Asaka (**1 126,8** mlrd. so'm), Shahrixon (**938,5** mlrd. so'm), Qo'rg'ontepa (**906,4** mlrd. so'm), Marxamat (**845,5** mlrd. so'm) va Xo'jaobod (**789,6** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari
(yanvar-dekabr oylarida)

8 185,6	Savdo xizmatlari	92,9
74,0	Moliyaviy xizmatlari	1,3
6 193,3	Transport xizmatlar	99,2
1 420,4	Shaxsiy xizmatlar	98,6
236,6	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	16,2
208,6	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	14,9
909,1	Boshqa xizmatlar	72,5
646,0	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	91,0
829,1	Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	99,7
11 719,4	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar xizmatlar	94,2
573,3	Ijara prokat xizmatlari	99,2
458,7	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	67,3
137,7	Me'morchilik muhandislik izlanishlari texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	55,6

Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda


Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **92,9 %** (**8 185,6** mlrd. so'm), Transport xizmatlarida – **99,2 %** (**6 193,3** mlrd. so'm), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – **94,2 %** (**11 719,4** mlrd. so'm) hamda Shaxsiy xizmatlar ko'rsatishda **98,6 %** (**1 420,4** mlrd. so'm)ni tashkil etdi.

Me'morchilik muhandislik izlanishlari texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarida **55,6 %** (**137,3** mlrd. so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSh doll.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


Hajmi, mln. AQSh doll.

Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-dekabr ida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **432,8** mln. AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining **36,3** % ini tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Izboskan	24 420,10	100
Jalaquduq	38 360,3	96,5
Buloqboshi	13 989,90	94,5
Paxtaobod	27 560,50	94,4
Ulug'nor	21 786,20	90,4
Qo'rg'ontepa	21 867,40	87,2
Andijon	42 499,00	82,4
Marhamat	10 977,40	80,5
Shahrixon	80 784,60	70,5
Bo'ston	14 395,10	68,6
Andijon sh.	53 677,20	57,2
Xo'jaobod	38 652,60	44,8
Xonobod sh.	1 922,10	42,7
Oltinko'l	13 525,00	21,9
Baliqchi	8 537,30	14,2
Asaka	16 504,70	3,2


hajmi, mln. AQSh dollar

ulushi, % da

2024-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Izboskan tumanida – **100,0** %, Jalalquduq tumanida – **96,5** %, Buloqboshi tumanida – **94,4** %, Ulug'nor tumanida – **90,4** %, Qo'rg'ontepa tumanida – **87,2** %, Andijon tumanida – **82,4** %, Marhamat tumanida – **80,5** % va Shahrixon tumanida – **70,5** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Asaka tumaيدا – **3,2** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-dekabr ida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **549,6** mln. AQSh dollarini yoki jami importning **18,4** % ini tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Jalquduq tumanida – **100,0** %, Izboskan tumanida – **100,0** %, Bo'ston tumanida – **100,0** %, Shahrixon tumanida – **99,9** %, Paxtaobod tumanida – **99,0** %, Qo'rg'ontepa tumanida – **98,5** %, hamda Ulug'nor tumanida **92,8** % ni tashkil etdi.


Jalalquduq	100,0
Paxtaobod	100,0
Ulug'nor	100,0
Bo'ston	100,0
Shahrixon	100,0
Qo'rg'ontepa	99,3
Izboskan	98,7
Baliqchi	97,3
Buloqboshi	89,5
Xo'jaobod	68,3
Oltinko'l	66,5
Andijin	64,2
Marxamat	42,0
Andijon sh	27,7
Xonobod sh	11,0
Asaka	1,2

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




**Yuk
tashishda**

2024-yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,9 %** ni tashkil etdi. 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,8 %** ni tashkil qildi.




**Yuk
aylanmasida**

2024-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **75,3 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,6 %** ni tashkil qildi.



**Yo'lovchi
tashishda**

2024-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,2 %** ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **99,3 %** ni tashkil qildi.




**Yo'lovchi
aylanmasida**

2024-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,4 %** ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **98,0 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




2024-yil **IV chorak** yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **949** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **280 (29,5 %)**tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **611 (64,4 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **58 (6,1 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **38,8 % (368 ta)**, xizmatlar sohasida – **29,7 % (282 ta)**, sanoatda – **18,8 % (178 ta)**, qurilishda – **8,3 % (79 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **4,4 % (42 ta)**ni tashkil etdi.

2024-yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

274	Andijon sh.	28,9
80	Asaka	8,4
76	Andijjon	8,0
67	Oltinko'1	7,1
59	Shahrixon	6,2
51	Baliqchi	5,4
44	Izboskan	4,6
42	Xo'jaobod	4,4
40	Marhamat	4,2
35	Ulug'nor	3,7
34	Jalaquduq	3,6
34	Paxtaobod	3,6
33	Qo'rg'ontepa	3,5
32	Bo'ston	3,4
28	Buloqboshi	3,0
20	Xonabod sh	2,1


Respondentlar soni

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahri (274 ta), Asaka (80 ta), Andijjon (76 ta), Oltinko'1 (67 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning IV choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning IV choragida 374 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning IV choragiga kelib esa 280 taga yetgan yoki 2019-yilning IV choragiga nisbatan 94 taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2020-yilda 547 ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-dekabrida 611 ta yoki 64 taga ko'paygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020-yilda 61 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 58 tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 3 taga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning IV choragida **694** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning IV choragiga kelib esa **293** taga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **401** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning IV choragida **252** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning IV choragida **520** ta yoki **268** taga ko'paygan..

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2019-yilning IV choragida **57** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning II choragiga kelib, bu ko'rsatkich **48** tani tashkil etib, **9** taga kamaygan..

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning IV choragida **70,3** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib esa **29,5** % ga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **40,8** % ga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019-yilda **23,4** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning IV choragida **64,4** % yoki **41,0** % ga ortgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda **5,8** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, bu ko'rsatkich **6,1** % ga yetgan yoki **0,3** % ga ortgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillar IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning IV choragida **70,3** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib esa **34,0** % ga yetgan yoki 2019-yilning IV choragiga nisatan **36,3** % ga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2019-yilning IV choragida **26,9** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-dekabrida **60,4** % yoki **33,5** % ga ortgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilning IV choragida **5,7** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning II choragiga kelib, bu ko'rsatkich **5,6** % yoki **0,1** % ga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024-yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – 32,3 % ni, Xizmatda – 29,4% ni, Sanoatda– 26,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda – 67,1 % ni, Sanoatda – 66,9 % ni, Xizmatlar – 66,0 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi Qurilish – 11,4 % ni, Sanoatda – 6,7 % ni, Savdo – 6,0 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2024-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq xo'jaligi – 47,6 % ni, qurilish sohasida – 45,6 % ni. va savdoda – 40,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi Sanoatda – 59,6 % ni, Savdoda – 58,7 % ni, Xizmatlarda – 57,4 % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi Xizmatda – 2,8 % ni, Sanoatda – 2,2 % Qurilishda – 1,3 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	33,7	57,4	8,9
Band bo'lganlar soni	19,6	75,5	4,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	33,0	60,7	6,3
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	25,6	68,9	5,6
Raqobat muhiti	33,6	62,2	4,2

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	40,4	57,3	2,3
Band bo'lganlar soni	24,4	72,9	2,6
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	34,1	63,9	2,0
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	28,0	69,1	2,8
Raqobat muhiti	37,0	61,2	1,8


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli